

O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARI ULARNING QONUNIY ASOSLARI VA NORMALARI

Azirbaev Salamat

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti.
Yuridika fakulteti 101-guruh talabasi.

Annotatsiya: O'zbekistonda bola huquqlari va ularning qonuniy asoslari, bola huquqlarining xalqaro normalari. O'zbekistonda bola huquqlari bo'yicha qabul qiliniyotgan qonun va nizomlar haqida.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, konvenstiya, xalqaro normalari, O'zbekiston, shart-noma, qonun, javobgarlik.

CHILD RIGHTS IN UZBEKISTAN, THEIR LEGAL BASIS AND NORMS.

Abstract: Children's rights in Uzbekistan and their legal bases, international norms of children's rights. About the laws and regulations adopted in Uzbekistan on children's rights.

Keywords: child rights, convention, international norms, Uzbekistan, contract, law, responsibility.

KIRISH

Hozirda yurtimizda bola huquqlariga juda katta e'tibor qaratilyapti. Bola huquqlari o'zi nima? qanday qonun va nizomlar bilan tartibga solinadi.? Bola huquqlari - bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lган huquq va erkinliklar. Xalqaro huquqda 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro va milliy darajada ko'plab maxsus hujjatlar mavjud. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro darajadagi asosiy hujjat Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya hisoblanadi. Konvensiya Nyu-Yorkda 1989 yil 20-noyabrda qabul qilingan. Unda 54 ta moddadan iborat bo'lib, ularda bolalarning huquqlari. Konvensiyaga kiritilgan barcha huquqlar barcha bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

Konvensiyada birinchi marta bola Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar "hurmat qilish va kafolatlash" talab qilinadigan huquqlarga ega bo'lган shaxs sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu qoida bola jamiyatning juda himoyasiz a'zosi ekanligi va shuning uchun alohida himoyani talab qilishi va bunga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

ASOSIY BO'LIM

Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lган shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6-modda), oila qurish (9-modda), ismi va fuqaroligi bo'yicha.

Ta'lim to'g'risida (7-modda), zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida (19-modda), tenglik, fikr va so'z erkinligi to'g'risida (13-modda), dam olish va hordiq chiqarish (31-modda), tibbiy. xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash (24-modda), davlat yordamida (18-27-modda) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinishi bilan «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 22 apreldagi PQ-4296-sonli qaroriga binoan Ombudsman hozirda o'z o'rinnbosariga – bolalar huquqlari bo'yicha vakilga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyuldagi qaroriga asosan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlashga bag'ishlangan Tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Tadbirlar dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 aprelda qabul qilingan "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini bajarish yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalari yurtdoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilinayotgani bejiz emas. Ayniqsa, bola huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar haqida joylardagi bolalar manfaatlari yo'lida ishlayotgan tegishli davlat va jamoat tuzilmalarini maqsadli, yalpi va tizimli xabardor qilishni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani juda muhim.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko'rsatsak, ishga, ilmga, kasbu hunarga, ezgu fazilatlarga o'rgatsak, ularning yo'lini ochib bersak, ertaga foydasi o'zimizga, jamiyatimizga tegadi». Bola huquqlarining kafolatlari to'g'irisida qonuning:

10-modda. Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlarini sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qyynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbazarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev o'zining bayonatlarida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalari yurtoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilinayotgani bejiz emas. Ayniqsa, bola huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar haqida joylardagi bolalar manfaatlari yo'lida ishlayotgan tegishli davlat va jamoat tuzilmalarini maqsadli, yalpi va tizimli xabardor qilishni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani juda muhim.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko'rsatsak, ishga, ilmga, kasbu hunarga, ezgu fazilatlarga o'rgatsak, ularning yo'lini ochib bersak, ertaga foydasi o'zimizga, jamiyatimizga tegadi». Yuqorida aytib o'tilgan qonun va nizomlarni yanada targ'ib qilsak bola huquqlari haqida yoshlar ko'p malumotlarga ega bo'lsa o'zlarining haq-huquqlari kam buzilgan bo'lardi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

- 1.<https://lex.uz/acts/-1297315>
- 2.<https://nhrc.uz/oz/menu/bola-huquqlari>
- 3.Bola huquqlarining kafolatlari to'g'irisida qonuni.\
- 4.«Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 22 apreldagi PQ-4296-sonli qarori.